Hasanov Husinboy Xudayberganovich
O‘zbekistonda Respublikasi bank moliya
akademiyasi tinglovchisi
Email: khusinboyh@mail.ru

MOLIYAVIY HISOBOTLARNING XALQARO STANDARTLARI VA ULARGA O‘TISH ZARURIYATI

Anotatsiya: Iqtisodiyotda ishlab chiqarish subektlari, tashkilotlar samaradorligi, umuman, iqtisodiyot rivojida moliyaviy hisobotlarning o‘ziga xos o‘rni bor. Biz xalqaro doiraga va Jahon bozoriga intilayotgan ekanmiz, faoliyatimiz ham xalqaro standartlarga mos bo‘lishi lozim.

Kalit so‘zlar: xalqaro moliyaviy hisobot,buxgalteriya hisobining milliy standartlari,tashkilotlar faoliyati samaradorligi, investitsiya.

Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir sohada globallashuv jarayonida sifatli va raqobatbardosh tizim yaratish bo‘yicha amaliy ishlar davom etmoqda. O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilish uchun muayyan sharoit yaratish, jumladan, vatanimiz iqtisodiy sub’ektlari faoliyatining shaffofligi va aniqligiga erishish zarur. Bu masalani amalga oshirish moliyaviy hisobotlarning umumqabul qilingan jahon standartlarini – moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo‘llash bilan bog‘liq. Xususan, so‘nggi yillarda respublikamizda buxgalteriya hisobi va hisobotini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiqlashtirish bo‘yicha qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda va bugungi kunda ushbu ulkan ishlarning navbatdagi istiqbolli bosqichiga o‘tildi desak bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026-yillarga Mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida farmonida yurtimidagi barcha sohalarda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan qator maqsadlar belgilab berilgan. Ushbu strategiyaning 26-maqsadi: ‘‘**Mamlakatda investitsiya muhitini yanada**

yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish. Investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo‘yicha, “pastdan-yuqoriga” tamoyili asosida, yangi tizimni yo‘lga qo‘yish”[1] etib belgilangan. Mazkur maqsaddan ko‘rinib turibdiki yurtimizda hisob – kitob amaliyotlarining xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va shu orqali xorijiy ishbilarmonlarni yurtimizning davlat va xususiy korxonalariga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularga ochiq, shaffof va tushunarli hisobot tizimini yaratish vazifasi qo‘yilmoqda.

Mazkur maqsad bo‘yicha respublikamizda faoliyat yuritayotgan iqtisodiy subyektlarning xorijlik hamkorlar bilan xalqaro aloqalar doirasi sezilarli darajada kengaymoqda, va o‘z -o‘zidan buxgalteriya hisobotlaridan xorijiy foydalanuvchilar hajmi ham ortmoqda. Shu munosabat bilan BHMS bo‘yicha tuzilgan moliyaviy hisobotlarni kompaniyalarning aksiyalari xalqaro fond bozorlarida kotirovka qilinadigan aksiyadorlik jamiyatlari uchun MHXSga muvofiq o‘zgartirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimizning 2022-yil yakunlari bo’yicha Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida alohida e’tibor qaratilishi lozim bo’lgan yuqoridagi ko’rsatkichlar shuni namoyon etadiki, o’tgan yillar davomida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini yirik korxonalarda qo’llash o’z natijasini va dolzarbligini ko’rsatmoqda, qolaversa, ushbu standartni imkon qadar tezroq va hajmliroq tadbiq etish yurtimiz iqtisodiyotiga faqat va faqat amaliy foyda olib kelishi turgan gap.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari o‘quv qo‘llanma[2]. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investistiyalarni to‘g’ridan-to‘g’ri jalb etilishi, erkin iqtisodiy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

[2] Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.

zonalarning tashkil etilishi va faoliyat yuritishi buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil qilishni zarurat qilib qo‘ymoqda. Hozirgi vaqtda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari xo‘jalik subyektlar tomonidan tashqi foydalanuvchilar ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan buxgalteriya axborotini tayyorlashda tobora keng foydalanilmoqda. Bu holat axborotni sifatini oshirish, kapital qiymatini pasaytirish, kapital bozoriga kirishni osonlashtirish kabi bir qator sabablar bilan izohlanadi.

MHXSga o‘tishning asosiy muammolari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

birinchi, davlat sektorida buxgalteriya hisoboti tushunchasi va uni MHXS qoidalari va tamoyillari asosida shakllantirishdagi muammolar mavjudligi;

ikkinchi, O‘zbekiston Respublikasi jahon iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan qismi sifatida xorijiy investorlar uchun tushunarli bo‘lgan yuqori sifatli moliyaviy hisobotlarga muhtojligi;

uchinchi, amaldagi BHMSga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar ba’zi jihatlari bo‘yicha chet ellik foydalanuvchilar uchun tushunarsiz bo‘lib qoldi.

Mazkur xujjat, albatta, yillar davomida shakllanib kelgan buxgalterlar, auditorlarning hisob xizmatlarini yo‘lga qo‘yishdagi an’anaviy yondashuvlardan to‘liq voz kechishni talab qilmaydi. Shu bilan birga, biznes subyektlarining katta qismini tashkil etadigan kichik va o‘rta biznes subyektlarida buxgalteriya hisobining milliy standartlari amal qilishini inkor etmaydi. Ya’ni ular to‘liq xo‘jalik operatsiyalarini, moliyaviy hisobotlarini tayyorlashni xalqaro standartlarga yaqinlashtirilgan, muvofiqlashtirilgan amaldagi normalar asosida yo‘lga qo‘yadilar.

Tadqiqotlar jarayonida olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar davlat sektorida buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarni MHXSlari asosida tashkil qilishni takomillashtirishda va mavjud muammolarni hal etish bo‘yicha chora – tadbirlar ishlab chiqilishida keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Xalqaro standartlarga o‘tishning keng ko‘lamli va sifatli ijrosida kadrlar masalasi asosiy masala hisoblanadi. Shunday ekan, biznes subyektlarining xalqaro biznes

tillashuvida o‘z nomidan axborotlar oqimini barcha uchun tushunarli hamda aniq shakllarda ochib berishga qodir bo‘lgan buxgalteriya hisobi, audit sohasining professional mahoratli, shaxsiy tajribalar va intuitsiyalarda aldanmaydigan kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifa bo‘lmog‘i lozimdir.

WORDLY
KNOWLEDGE